

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIGIGA ZAMONAVIY DUNYONING VA RAQAMLASHTIRISHNING ASOSIY VOSITASI SUN'IY INTELEKTI (SI) JORIY ETISHNING TUTGAN AHAMIYATI

Qarshiboyev Fayzulla

*Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrası boshlig'i
dotsent b/x podpolkovnigi*

Eshboyev Nursulton Husan o'g'li

Bojxona instituti kursanti,

E-mail: magnate2105@gmail.com

Annotatsiya *Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari zamonaviy jamiyatning turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ularning rivojlanishi bilan birga, huquqiy, etik va ijtimoiy muammolar ham yuzaga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham SI texnologiyalarini rivojlantirish va ularni huquqiy tartibga solish bo'yicha muhim qadamlar tashlamoqda."Raqamli O'zbekiston - 2030" Strategiyasi sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiyotning boshqa sohalarida joriy etishni nazarda tutadi.Ushbu maqolada SI ni O'zbekistonning huquq sohasiga qo'llashning ahamiyati va xorijiy davlatlar tajribasini o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, O'zbekiston Respublikasi ma'muriyatchiligi, NLP(natural language process), ML(Machine learning), DL(Deep learning), Raqamli huquqiy xizmatlar, Raqamli suverenitet, Normativ-huquqiy hujjatlar,Huquqiy tartibga solish,Qonunchilik islohoti, Digital transformatsiya*

Аннотация *Технологии искусственного интеллекта (ИИ) широко применяются в различных сферах современного общества. Наряду с их развитием возникают правовые, этические и социальные проблемы. Республика Узбекистан также предпринимает важные шаги по развитию технологий ИИ и их правовому регулированию. Стратегия "Цифровой Узбекистан - 2030" предусматривает внедрение технологий искусственного интеллекта в государственное управление, образование, здравоохранение и другие отрасли экономики. В данной статье изучается значение применения ИИ в правовой сфере Узбекистана и опыт зарубежных государств.*

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, Административная система Республики Узбекистан, Обработка естественного языка (NLP), Машинное обучение (ML), Глубинное обучение (DL), Цифровые юридические услуги, Цифровой суверенитет, Нормативно-правовые акты, Правовое регулирование, Законодательная реформа, Цифровая трансформация*

Annotation Artificial Intelligence (AI) technologies are widely applied in various spheres of modern society. Along with their development, legal, ethical and social problems are emerging. The Republic of Uzbekistan is also taking important steps to develop AI technologies and regulate them legally. The "Digital Uzbekistan - 2030" Strategy envisages the implementation of artificial intelligence technologies in public administration, education, healthcare and other sectors of the economy. This article examines the importance of applying AI in Uzbekistan's legal sphere and the experience of foreign countries.

Keywords: Artificial Intelligence, Administrative System of the Republic of Uzbekistan, Natural Language Processing (NLP), Machine Learning (ML), Deep Learning (DL), Digital Legal Services, Digital Sovereignty, Normative Legal Documents, Legal Regulation, Legislative Reform, Digital Transformation

KIRISH

XXI asr texnologik inqilob davri sifatida tarixga kirdi va bu davrning eng muhim belgisi - sun'iy intellekt texnologiyalarining hayotimizning deyarli barcha sohalarida keng qo'llanila boshlanishi hisoblanadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt nafaqat ilmiy-fantastik filmlar mavzusi emas, balki real hayotda davlatlar iqtisodiyoti, jamiyat farovonligi va milliy xavfsizlikning muhim omili sifatida tan olinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham bu global jarayondan chetda qolmay, milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va qonunchiligiga joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatimizning "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida raqamlashtirish va sun'iy intellekt muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekistonda sun'iy intellektni joriy etish strategiyalari

"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi: poydevor va istiqbollar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'l xaritasi hisoblanadi.

Strategiyaning asosiy yo'nalishlari:

Davlat boshqaruvi sohasida raqamlashtirish - elektron hukumat xizmatlarini takomillashtirish va sun'iy intellekt asosida davlat qarorlarini qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish

Iqtisodiy tarmoqlarda raqamli transformatsiya - korxonalar va tashkilotlarda SI texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish

Ijtimoiy sohalarda innovatsiyalar - ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya kabi sohalarda SI dan foydalanish

Raqamli kadrlar tayyorlash - SI sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishtirish

Milliy raqamlashtirish dasturlari va loyihalar

"Digital Uzbekistan" ekotizimi yaratish:

MyGov.uz platformasi orqali 300 dan ortiq davlat xizmati raqamlashtirildi

SI algoritmlari yordamida fuqarolarning so'rovlarini avtomatik taqsimlash tizimi joriy etildi

Predictive analytics (bashoratli tahlil) orqali davlat xizmatlariga ehtiyojni oldindan aniqlash imkoniyati yaratildi

Aqlli shaharlar (Smart Cities) loyihalari:

Toshkent shahridagi "Smart Tashkent" loyihasi doirasida traffic management tizimlari SI asosida ishlaydi

Samarqand va Buxoro shaharlarida smart tourism tizimlari joriy etilmoqda

Urganch shahrida SI asosida suv ta'minoti va chiqindi utillarini boshqarish tizimlari sinovdan o'tkazilmoqda

Sun'iy intellektning O'zbekiston huquq tizimiga kirish jarayoni

Qonunchilik sohasidagi o'zgarishlar va yangi normalar

2021-2025 yillar oralig'ida qabul qilingan asosiy hujjatlar:

"Elektron hujjat aylanish to'g'risida"gi qonunga o'zgarishlar (2024-yil)

SI tomonidan yaratilgan hujjatlarning huquqiy maqomi belgilandi

Elektron imzo va blockchain texnologiyalari bilan integratsiya imkoniyatlari yaratildi

"Ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun loyihasi (2023-yil)

Big Data va SI uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanish tartibi

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish SI kontekstida

Mehnat qonunchiligiga o'zgarishlar (2025-yil)

Remote work (masofaviy faoliyat) va SI asosidagi ish jarayonlari uchun huquqiy asos

Robotlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarida hodimlar huquqlarini himoya qilish

Sudlov tizimida sun'iy intellekt elementi

"Elektron sud" tizimining rivojlanishi:

Misollar amaliyotdan:

Toshkent shahar sudlarida 2024-yildan boshlab ishlar taqsimoti SI algoritmlari orqali amalga oshirilmoqda, bu sudyalarning o'rtasida ishlarni adolatli taqsimlash imkonini beradi

Oliy sud huzuridagi Ekspert markazi kriminalistik ekspertizalarda SI texnologiyalaridan foydalanmoqda (barmoq izlari, yozuv ekspertizasi)

Sud qarorlarini tahlil qilish tizimi o'xshash ishlar bo'yicha precedentlarni aniqlash va sudyalarga tavsiyalar berish uchun ishlatilmoqda

AICA(Markaziy Osiyo sun'iy intellekt assotsiatsiyasi)

O'zbekiston Oliy sudi uchun sun'iy intellekt

Ushbu loyihani O'zbekiston Oliy sudi faoliyatini sun'iy intellektni joriy etish orqali takomillashtirishga qaratilgan. Tizim fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishni avtomatlashtirish, ma'lumotnomalar bilan ta'minlash, sudyalarga qarorlar qabul qilishda yordam berish va normativ-huquqiy bazadan foydalanish imkonini beradi.

Huquqni muhofaza qilish organlarida SI:

IIV tizimida yo'l-transport hodisalarini tahlil qilish va oldini olish uchun SI modellari Computer vision , NLP va ML qo'llanilmoqda

Bojxona qo'mitasida kontrabanda xavfini baholash uchun risk-management tizimlari hamda DL joriy etilgan

Soliq qo'mitasida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va soliq evazion riskini aniqlash tizimlari ishlaydi

Davlat xizmatlarida sun'iy intellekt integratsiyasi

1. Ijtimoiy ta'minot sohasida:

Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi nogironlik darajasini aniqlashda SI dan foydalanmoqda

Ijtimoiy to'lovlarni hisoblash va taqsimlash jarayonlari 40% tezlashdi

Firibgarlik holatlarini aniqlash samaradorligi 60% ga oshdi

2. Ta'lim sohasida:

Oliy ta'lim vazirligi talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun SI platformasidan foydalanadi

Onlayn ta'lim platformalarida individual o'qitish dasturlari SI orqali shakllantirilmoqda
Imtihon natijalarini tahlil qilish va sifatni baholash avtomatlashtirildi

3. Sog'liqni saqlash sohasida:

Sog'liqni saqlash vazirligi epidemiologik monitoring uchun SI dan foydalanmoqda
COVID-19 pandemiyasi davrida kasallik tarqalishini bashorat qilish modellari ishlab chiqildi

Tibbiy tasvirlarni (rentgen, MRT) tahlil qilish uchun SI ning OCR(Optical Character Recognition) yordamchi vosita sifatida joriy etilmoqda

Amaliy misollar: SI ning huquq sohasiga ta'siri

Notarial faoliyatda raqamlashtirish

"Elektron notarius" tizimi: <https://e-notarius.uz/>

Adliya vazirligi huzurida ishlaydigan elektron notariat tizimida SI quyidagi vazifalarni bajaradi:

Hujjatlarning haqiqiylikini tekshirish (deepfake va qalbakichilikni aniqlash)

Shartnomalar matnini tahlil qilish va huquqiy xatolarni topish

Notarial harakatlarning davomiyligi va qonuniyligini nazorat qilish

Statistik natijalar: 2025-yil davomida notarial xizmatlar ko'rsatish vaqti o'rtacha 35% qisqardi, xatolar miqdori 50% kamaydi.

Adliya vazirligi tomonidan davlat xizmatlari bo'yicha SI ga asoslangan «Odil» chat-boti yaratildi.

Telegram messengeriga integratsiyalashgan va sun'iy intellektga asoslangan chat-bot fuqarolarga davlat xizmatlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanishni osonlashtirish uchun yaratilgan.

Uning ishga tushirilishi 1148 ishonch telefoni operatorlari yukini sezilarli darajada kamaytirish va foydalanuvchilarning so'rovlariga real vaqt rejimida tezkor javob berish imkonini yaratadi.

1148 ishonch telefoni orqali 2024 yilda fuqarolarning 135 mingga yaqin qo'ng'irog'i qabul qilingan. Shundan qariyb 128 mingta murojaat yoki 95 foizi yuzasidan mutaxassislar tomonidan huquqiy tushuntirish berilgan.

Davlat xizmatlaridan foydalanish tartiblari, talablar va jarayonlar haqida batafsil ma'lumotni taqdim etadi.

Kerakli hujjatlar va arizalarni topishga yordamlashadi.

Qaysi masala bo'yicha qayerga murojaat qilishni tushuntiradi.

Fuqarolik huquqida arbitraj va mediatsiya

"Online dispute resolution" (ODR) tizimlari:

Kichik hajmdagi iqtisodiy nizolarni hal qilishda SI posredchilik(betaraf vositachi) qilmoqda

Iqtisodiy sudlar tizimi uchun ishlab chiqilgan prototip tizim nizolar tasnifi va dastlabki tahlilni amalga oshiradi

Mediatsiya jarayonlarida SI tomonlar o'rtasidagi umumiy nuqtalarni topish va kelishuvga erishish yo'llarini taklif qiladi

Jinoyat-huquq sohasida SI qo'llanishi

Jinoyat javobgarlik va investigativ faoliyat:

Bosh prokuratura huzuridagi maxsus tuzilma jinoyat statistikasini tahlil qilish va jinoyat profilaksi choralarini ishlab chiqishda SI ning OCR(Optical Character Recognition) dan foydalanmoqda

Jinoyatchilar harakatlari pattern'larini aniqlash va keyingi jinoyatlarni bashorat qilish tizimlari sinovdan o'tkazilmoqda

Video kuzatuv kameralaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish avtomatlashtirildi

Ma'muriy huquqda avtomatlashtirish

Litsenziyalash va ruxsatnomalar berishda SI:

"Yagona portal" (my.gov.uz) orqali berilayotgan litsenziyalar uchun SI quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Ariza beruvchining ma'lumotlarini avtomatik tekshirish

Zarur hujjatlar to'plamini tahlil qilish

Ruxsatnoma berish yoki rad etish bo'yicha dastlabki tavsiya berish

Amaliy natija: Litsenziya olish jarayoni 10-15 kun orasidan 3-5 kunga qisqardi.

Qonunchilik palatasi deputati Alisher Qodirovning yozishicha, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46-moddasiga 2-qo'shimcha kiritilmoqda:

«Sun'iy intellektdan foydalanib, shaxsga doir ma'lumotlarga noqonuniy ishlov bergan va tarqatganlarning ish qurollari musodara qilinadi, 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olinadi yoki bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 100 baravargacha jarimaga tortiladi».

Xorij tajribasiga qaraydigan bo'lsak:

XITOY

Smart Court Initiative (智慧法院) To'liq internet-sud tizimi hisoblanib, ba'zi oddiy ishlar uchun AI sudya, raqamli dalillar tasdiq hamda virtual reality sud majlislari olib boruvchi tizimdir. Intelektual mulk huquqini uzida jamlovchi Data Base bazadan va Blockchain texnologiyasidan foydalangan holda ta'minlaydi.

SINGAPUR

State Courts Digital Transformation To'liq raqamli sud jaroyinini tizimlashtirilgan, optimal vaqt tejalishi, sms va email eslatmalar bildirishnomalar hamda sud samaradorligi bo'yicha tahlillarni ko'rsatuvchi tizim hisoblanadi.

AMERIKA QOSHMA SHTATLARI

Federal sudlar tizimida AI

PACER (Public Access to Court Electronic Records) tizimi

Sud hujjatlarini elektron boshqarish va kirishda SI ning hujjatlarni avtomatik tasniflash, matn tanib olish (OCR) texnologiyasi hamda qidiruv algoritmlarini takomillashtirish komponentlaridan foydalanilgan.

Natija: 40 million sud ishi hujjatlari raqamlashtirildi

GERMANIYA

e-Justice Initiative hujjatlar bilan ishlovchi bu tizimda elektron ish fayllarni, qarorlarni SI yordamida DL (Deep learning) metodlari orqali tekshiruv hamda raqamli imzo integratsiyasi va uni ham NLP (Natural Language Process) metodlari orqali tekshirish, hujjatlar sifatini hamda kamchiliklarini bartaraf etishdan iborat

Sun'iy intellekt joriy etishning huquqiy muammolari va yechimlar

Joriy muammolar

1. Qonunchilik bo'shliqlar:

SI tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik masalasi, chiqarilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, qarorlar masalaga to'la javob bera olish kerakligi

Algoritm kamsitishi (algorithmic bias) va uning huquqiy oqibatlari, hamma sohaga ham SI ni qo'llayverish ham no'to'g'ri

Ma'lumotlar maxfiyligi va shaxsiy hayot daxlsizligi

2. Texnik va huquqiy integratsiya qiyinchiliklari:

Mavjud huquqiy tizim bilan yangi texnologiyalar o'rtasidagi moslashuv muammolari
Xodimlarning texnologik savodsizligi

Xavfsizlik va kiberhujumlar xavfi

Taklif etiladigan yechimlar

1. Qonunchilik takomillashtirish:

"Sun'iy intellekt to'g'risida"gi alohida qonun qabul qilish

Mavjud qonunlarga SI bilan bog'liq normalarni kiritish

Xalqaro standartlarga muvofiq milliy standartlar ishlab chiqish

Ma'lumotlar bazasini to'plash, qayta ishlash va undan oqilona foydalangan holda yangi tizimlarni joriy etish

Lex AI chatbotini ommaga taqdim etish

2. Institutional rivojlanish:

SI sohasini tartibga soluvchi maxsus davlat organi yaratish

Sudyalar va huquqshunoslar uchun SI bo'yicha ta'lim dasturlari

Etik qo'mitalar va ekspert kengashlari tashkil etish

Sud tizimini katta qismini raqamlashtirish, ish samaradorligini oshirish

Hujjat aylanmalarini to'liq raqamlashtirish ya'ni qog'ozbozlikdan voz kechish

Xodimlarni SI bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun kurslar, tadbirlar tashkil etish

Kelajak rejalari

2025-2030 yillar uchun strategik maqsadlar

Qisqa muddatli maqsadlar (2025-2026):

SI bo'yicha asosiy qonunchilik bazasini yaratish, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish

Davlat organlari xodimlarini SI texnologiyalari bo'yicha tayyorlash

Pilot loyihalarni kengaytirish va umumlashtirish

Lex AI chatbotini ishga tushurish

O'rta muddatli maqsadlar (2026-2028):

Barcha davlat xizmatlarining 70% ni SI elementlari bilan jihozlash

Elektron sud tizimini to'liq avtomatlash

Hujjat aylanmasini avtomatlashtirish

SI asosidagi legal tech startuplarini qo'llab-quvvatlash

Uzoq muddatli maqsadlar (2028-2030):

O'zbekistonni mintaqada SI sohasida yetakchi davlat sifatida shakllantirish

Xalqaro SI governess sohasida faol ishtirok etish

SI eksporti va texnologik hamkorlikni rivojlantirish

Xulosa

Sun'iy intellektni O'zbekiston huquq tizimiga joriy etish jarayoni strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning raqamli transformatsiya yo'lidagi muhim qadami hisoblanadi. Garchi ayrim qiyinchiliklar va muammolar mavjud bo'lsa-da, erishilgan natijalar va kelajak rejalari mamlakatning bu sohada muvaffaqiyatli rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatmoqda.

Muvaffaqiyat uchun asosiy omillar quyidagilardir:

Puxta ishlab chiqilgan qonunchilik bazasi

Xalqaro tajribani hisobga olgan holda milliy xususiyatlarni inobatga olish

Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini muntazam amalga oshirish

Etik va huquqiy masalalarga alohida e'tibor berish

Bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini qo'llash

O'zbekiston Respublikasining SI sohasidagi sa'y-harakatlari nafaqat ichki rivojlanish, balki mintaqaviy liderlik va xalqaro hamkorlikda muhim o'rin egallash imkoniyatlarini yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-6079-son, 2020-yil 5-oktyabr – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
2. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2024 - yilgi o'zgartirishlar bilan).
3. "Ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun loyihasi, O'zbekiston Respublikasi, 2023-yil.
4. "Mehnat Kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar", O'zbekiston Respublikasi, 2025 -yil.
5. <https://e-notarius.uz/> – Elektron notarius tizimi rasmiy veb-sayti.
6. MyGov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
7. PACER – Public Access to Court Electronic Records, AQSh federal sudlar tizimi.
8. Smart Court Initiative(智慧法院), Xitoy Xalq Respublikasi.
9. State Courts Digital Transformation, Singapur.
10. e-Justice Initiative, Germaniya Federal Adliya vazirligi.
11. Bosh prokuratura statistik tahlil hisobotlari, O'zbekiston, 2024-2025-yillar.
12. AICA(<https://aica.uz>) – Markaziy Osiyo Sun'iy Intellekt Assotsiatsiyasi faoliyati.
13. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasidagi raqamlashtirish dasturlari tahlili.
14. "Digital transformatsiya va sun'iy intellekt" - mintaqaviy tadqiqotlar.
15. Raqamli suverenitet va ma'lumotlar xavfsizligi masalalari bo'yicha tadqiqotlar.
16. IIV (Ichki ishlar vazirligi) yo'l-transport hodisalari statistikasi, 2024-2025.
17. Bojxona qo'mitasi faoliyat hisobotlari, 2024-2025.
18. Soliq qo'mitasi raqamlashtirish dasturlari hisobotlari, 2024-2025.
19. @Odil_chat_bot dliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellektga asoslangan Telegram bot.